


## 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

2016-2020 yillar 1-aprel holatiga ko'ra

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)



Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 27 833 tani tashkil etib, ulardan 27 029 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 626 taga yoki 15,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida 1 672 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,8 % kamaygan.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

15 157



Mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

630



Oilaviy korxonona

164



Unitar korxonona

7 131



Xususiy korxonona

29




Aksiyadorlik jamiyati

416




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat



xususiy korxonona




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Mas'uliyati cheklangan jamiyat deb bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan miqdordagi ulushlarga bo'lingan jamiyat tan olinadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bo'lib zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.



Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "mas'uliyati cheklangan" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra)  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 22 807 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6 845 ta, oilaviy korxonalar – 607 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 812 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 26 ta, unitar korxonalar – 148 ta va boshqalar – 369 tani tashkil etgan.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-mart oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020-yil yanvar-mart oylarida 1 672 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,6 % kamaygan. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 124 ta, xususiy korxonalar – 390 ta, oilaviy korxonalar – 98 ta, muassasalar – 22 ta va boshqalar – 38 tani tashkil etdi.

## Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi


(1-aprel holatiga ko'ra)

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 5 730 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,4 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili bo'lib (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 118,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,2 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 111,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 82,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 125,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.




## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 028 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,0 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 118,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 54,7 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 110,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,0 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 133,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 38,3 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 7 464 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 128,5 % ga oshdi. Jami savdo korxonalarini va tashkilotlarini soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 123,8 % ga (jami savdodagi ulushi 66,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 140,7 % ga (jami savdodagi ulushi 25,2 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 134,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,4 %) o'sishidir.

## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda parvarishlash



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**55**

yashash bo'yicha xizmatlar




**1 114**

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 169 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 121,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 95,3 %), yashash bo'yicha xizmatlar– 131,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 4,7 %) o'sishidir.

## Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 400 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,6 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, televideniya dasturlari ishlab chiqish, ovoz yozish va musiqa asoslarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 95,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 5,3 %), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 129,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 21,8 %), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 106,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 12,5 %), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 80,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,0 %), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 102,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 21,4 %), aloqa xizmatlari – 127,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 37,0 %) o'sishidir.


**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17-son qaroriga muvofiq **IT-PARK** ishga tushdi.

**IT-PARK maqsadi:**

-yosh iqtidor egalari g'oyalarini istiqbolli biznes loyihalariga aylantirishga ko'mak beradigan maskan;

-yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startup-loyihalarni" har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash.

### Oilaviy korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 630 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 225 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 607 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 214 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 98 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 21,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 15 157 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 993 taga yoki 124,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 812 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 002 taga yoki 125,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 124 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 283 taga yoki 20,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 243 tani tashkil etib, ulardan 236 tasi yoki 97,1 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 78 taga yoki 47,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 16 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat  
ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha soni**  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
<b>Jami</b>	<b>84</b>	<b>92</b>	<b>105</b>	<b>156</b>	<b>236</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	2	2	15	27
Sanoat	67	68	79	98	133
Qurilish				2	12
Savdo	6	8	8	17	28
Tashish va saqlash		1	1	1	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	2	2	4	8
Axborot va aloqa				2	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	4	4	6	9
Boshqa turlar	6	7	9	11	17

**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati  
cheklangan jamiyatlar soni**  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan  
jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
<b>Jami</b>	<b>8 009</b>	<b>8 734</b>	<b>9 688</b>	<b>11 810</b>	<b>14 812</b>
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	687	706	811	991	1182
Sanoat	1 795	2 142	2 516	3 234	3 863
Qurilish	845	853	949	1 075	1 435
Savdo	2 378	2 636	2 693	3 497	4 819
Tashish va saqlash	409	492	592	684	817
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	306	331	378	466	595
Axborot va aloqa	144	145	167	193	218
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	137	161	185	237	272
Boshqa turlar	1 308	1 268	1 397	1 433	1 611



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
<b>Jami</b>	<b>196</b>	<b>271</b>	<b>393</b>	<b>607</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	28	27	36	49
Sanoat	98	131	198	286
Qurilish	2	2	2	3
Savdo	26	34	53	113
Tashish va saqlash	2			2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	24	43	63	96
Axborot va aloqa	4	4	4	6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	4	5	7
Boshqa turlar	10	26	32	45


**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali  
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	<b>53</b>	<b>41</b>	<b>12</b>
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	<b>11</b>	<b>8</b>	<b>3</b>
<i>Qirg'iz Respublikasi</i>	<b>10</b>	<b>9</b>	<b>1</b>
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	<b>9</b>	<b>7</b>	<b>5</b>


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




*Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 630 ta), Chust (2 201 ta), Namangan (1 920 ta), Uychi (1 714 ta) va To'raqo'rg'on (1 636 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (1 313 ta), Norin (1 260 ta) hamda Mingbuloq (1 176 ta) tumanlari korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.*

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Xorijiy korxonalar	Qo'shma korxonalar
Namangan viloyati	236	80	156
Namangan shahri	78	27	51
Mingbuloq	4	2	2
Kosonsoy	22	5	17
Namangan	12		12
Norin	11	4	7
Pop	21	5	16
To'raqo'rg'on	19	9	10
Uychi	18	3	15
Uchqo'rg'on	6	4	2
Chortoq	17	6	11
Chust	17	9	8
Yangiqo'rg'on	11	6	5

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Namangan shahri (36,0 %), Chust (8,2 %), Namangan (7,1 %), Uychi (6,3 %), Pop (6,0 %), Kosonsoy (6,0 %), To'raqo'rg'on (6,0 %), Uchqo'rg'on (5,5 %), Chortoq (5,2 %), Yangiqo'rg'on (4,9 %), Norin (4,5 %), Mingbuloq (4,3 %) tumanglar hissalariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil yanvar-mart oylarida, birlikda)


2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (23,3 %), Pop (12,9 %), Namangan (8,6 %), Norin (7,5 %), Uchqo'rg'on (7,0 %), Chust (6,9 %), Uychi (6,8 %), Chortoq (6,3 %), To'raqo'rg'on (6,1 %), Mingbuloq (6,0 %), Kosonsoy (5,2 %), Yangiqo'rg'on (3,4 %), tumanglari ulushiga ega.




**Hududlar kesimida har 1000 oilaga to'g'ri keladigan  
tadbirkorlik subyektlari soni**  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Namangan shahri 6 092 ta (jami ulushi 41,1 %), Namangan 1002 ta (6,8 %), Uychi 995 ta (6,7 %), Pop 904 ta (6,1 %), Chortoq 892 ta (6,0 %), Kosonsoy 837 ta (5,7 %), Chust 785 ta (5,3 %) va Yangiqo'rg'on tumani 747 ta (5,0 %) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, eng kamlari Mingbuloq 505 ta (3,4 %), To'raqo'rg'on 680 ta (4,6 %), Uchqo'rg'on 680 ta (4,6 %), tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)




2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi

## Hududlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlik



	Oilalar soni <sup>*)</sup>	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.04.2019-yil	01.04.2020-yil
<b>Namangan viloyati</b>	<b>693 905</b>	<b>19 887</b>	<b>23 527</b>
<b>Namangan shahri</b>	160 552	7 855	8 749
<b>Mingbuloq</b>	29 014	720	949
<b>Kosonsoy</b>	47 285	1 182	1 403
<b>Namangan</b>	44 952	1 436	1 736
<b>Norin</b>	42 750	780	1 011
<b>Pop</b>	55 246	1 026	1 353
<b>To'raqo'rg'on</b>	56 156	1 225	1 404
<b>Uychi</b>	55 132	1 180	1 481
<b>Uchqo'rg'on</b>	42 544	968	1 259
<b>Chortoq</b>	44 815	973	1 173
<b>Chust</b>	59 120	1 652	1 942
<b>Yangiqo'rg'on</b>	56 339	890	1 067

## Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni (2020-yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



2020-yil yanvar-mart oylaridagi yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Namangan (33 ta), To'raqo'rg'on (19 ta), Namangan shahri (13 ta), tumanglari hissariga to'g'ri keladi. Aksincha, Yangiqo'rg'on (2 ta), Kosonsoy (2 ta), Chust (3 ta) tumanglari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (2020-yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



## **Statistik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

**Namangan viloyat  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel.:71 230-84-96**